

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DINIY SIYOSAT VA
KONFESSIYALARARO MUNOSABATLAR**

Salimov Karimjon Zokirjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi

“Tergov faoliyati” yo'nalishi 3-kurs talabasi

e-mail: karimjonsalimov50@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 15.04.2026

Revised: 16.04.2026

Accepted: 17.04.2026

KALIT SO'ZLAR:

*dunyoviy davlat,
diniy bag'rikenglik,
konfessiya, diniy
siyosat, ekstremizmga
qarshi kurashish,
millatlararo
hamjihatlik, huquqiy
asoslar.*

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan diniy siyosatning mazmun-mohiyati, uning huquqiy asoslari hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni keng yoritilgan. Asosiy e'tibor davlatning dunyoviylik tamoyiliga amal qilgan holda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash, turli diniy konfessiyalar o'rtasida bag'rikenglik va totuvlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan siyosatiga qaratiladi. Shuningdek, maqolada mustaqillik yillarida diniy siyosatning bosqichma-bosqich shakllanishi, xususan, 1991-yildan hozirgi davrgacha bo'lgan rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga muvofiq, O'zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat. Dunyoviy davlat - har kim uchun vijdon erkinligi, mafkura va fikrlar xilma-xilligi kafolatlangan, davlat hokimiyati diniy-konfessiyaviy qarashlar va institutlardan ajratilgan hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, qarorlar qabul qilishda va ularni ijro etishda Konstitutsiyaga va qonunlarga, umumjamiyat manfaatlariga asoslangan tarzda boshqariladigan davlat. Dunyoviy davlatda diniy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Diniy qadriyatlar O'zbekiston xalqining madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, odob-axloqining shakllanishiga hamda ularning avloddan-avlodga meros bo'lib o'tishiga xizmat qilib kelmoqda. Diniy e'tiqodlar va diniy bag'rikenglik, dinlarning asl insonparvarlik mohiyati jamiyatning ma'naviy-axloqiy asoslaridan biri bo'lib, O'zbekiston xalqini birlashtirish va jipslashtirishga xizmat qiluvchi, oilalarda o'zaro hurmat-izzat va mehr-oqibatni mustahkamlovchi asriy qadriyatlar manbaidir. Bilamizki, davlat siyosati bu jamiyatda hokimiyatni qo'lga kiritish, uni amalga oshirish va boshqarish bilan bog'liq faoliyatlar majmui hisoblanadi. Siyosat davlatning ichki va tashqi faoliyatini belgilaydi hamda jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

Mana shunday davlat siyosatining bir ko'rinishi sifatida diniy siyosat ham yaqqol ajralib turadi. Diniy siyosat – bu davlatning din va diniy tashkilotlarga nisbatan olib boradigan maqsadli faoliyati bo'lib, u fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash, diniy bag'rikenglikni mustahkamlash va konfessiyalararo totuvlikni saqlashga qaratilgan. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy siyosat bir necha aniq bosqichlar orqali shakllangan va rivojlangan. Birinchi bosqichda (1991–1995) davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini normativ-huquqiy jihatdan tartibga solish va ularni milliy qadriyatlar doirasida integratsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ikkinchi bosqichda (1996–2005) strategik konseptlar ishlab chiqilib, diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi samarali choralar qabul qilindi, diniy tashkilotlar ijtimoiy, madaniy va axloqiy tarbiya sohalarida faol jalb qilindi. Uchinchi bosqich (2006–hozirgi kunga qadar) esa diniy siyosatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy integratsiya va global diniy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, davlatning diniy erkinlik va nazorat balansini yangi sharoitlarda saqlashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun teng shart-sharoitlar yaratishdan, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashishdan, konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashdan, jamiyatda diniy bag'rikenglikni va dunyoviylikni ta'minlashdan iborat. Kishilarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquq va erkinliklarining kafolatlangani, ularga og'ishmay amal qilinishi jamiyatda bag'rikenglik qadriyatlari ustuvorligini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Konstitutsiyamizda vijdon erkinligini ta'minlash bilan bog'liq bir qator qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga, jumladan, e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi haqidagi qoida ularning asosini tashkil etadi. Qayd etilgan tamoyillarning mantiqiy davomi sifatida Konstitutsiyamizning 35-moddasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”, – degan qoida mustahkamlab qo'yilganini ham ta'kidlash zarur.

O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishning normativ-huquqiy asoslarini shakllantirish 1990-yillarda boshlandi. 1998-yil 1-mayda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. Mazkur Qonun turli dinlarga e'tiqod qiluvchi fuqarolar hamda diniy tashkilotlar, shuningdek din va davlat o'rtasida yangi munosabatlarni shakllantirishga qaratildi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoda diniy taassublar zamirida radikal, ekstremistik va terroristik guruhlarning qonunga xilof faoliyati jadallashishi, shu jumladan ularning klerikal davlat tuzishga bo'lgan urinishlari fuqarolarning vijdon erkinligiga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqiga tahdidlarni yuzaga keltirdi. 2000-yillarda jahon tarixida xalqaro terroristik tashkilotlar a'zolari faoliyatining haddan tashqari faollashuvi kuzatildi. Mazkur jarayon O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Shunga qaramay, vijdon erkinligiga nisbatan

=====
tahdidlarni bartaraf etishga qaratilgan choralar izchil amalga oshirilib, jamiyatda barqarorlik muhiti saqlab qolindi.

2017-yildan keyin fuqarolarning vijdon erkinligiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqini bevosita amalga oshirish, konfessiyalararo totuvlik va bag‘rikenglikni ta‘minlash, milliy va diniy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlash, ziyoratgohlarni va muqaddas qadamjolarini obodonlashtirish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish bo‘yicha izchil ishlar yangicha mazmun va sur‘at kasb etdi. Xususan, davlat tarixiy, diniy, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan binolarni obodonlashtirish ishlarida faol ishtirok etdi. Mamlakat bo‘ylab yuzlab masjidlar, cherkovlar qurildi va ta‘mirlandi. Ko‘plab madaniy meros obyektlari, shu jumladan masjidlar, cherkovlar binolari diniy tashkilotlarga foydalanish uchun berilgan bo‘lib, u yerda fuqarolar diniy marosimlarni emin-erkin ado etib kelmoqda. Turli diniy konfessiyalar vakillari diniy bayramlarni erkin o‘tkazmoqda. Shuningdek ziyorat turizmini sifatli tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Fuqarolarning vijdon erkinligiga bo‘lgan huquqini yanada mustahkam ta‘minlash borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlarga mos ravishda 2021-yil 5-iyulda O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi yangi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun hamda Konstitutsiyamizning 75-moddasida ko‘rsatib o‘tilganidek, O‘zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. O‘zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlar va davlat organlarining faoliyati o‘zaro aralashmaslik asosida amalga oshiriladi. Davlat turli dinlarga e‘tiqod qiladigan va ularga e‘tiqod qilmaydigan fuqarolar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy aqidaparastlik hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi. Davlat konfessiyalarning tinch-totuv yashashiga kafil bo‘ladi. Missionerlik va prozelitizmni amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi. Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga davlatning biror-bir vazifalarini bajarishni yuklamaydi, ularning qonunchilikka zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini moliyalashtirmaydi va dinga e‘tiqod qiluvchilarning din bilan bog‘liq his-tuyg‘ularini haqoratlaydigan faoliyatga yo‘l qo‘ymaydi. O‘zbekiston Respublikasida diniy ruhdagi siyosiy partiya va boshqa jamoat birlashmasining, respublikadan tashqarida tuziladigan diniy partiyalar vakolatxonolari va filiallarining tashkil etilishiga hamda faoliyatiga, siyosiy partiyalar va siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi boshqa jamoat birlashmalari faoliyatida diniy tashkilotlarning ishtirok etishiga, shuningdek ularga moliyaviy yoki boshqa yordam ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Dunyo yaralganidan buyon odamzod millati, dini, irqidan qat‘iy nazar birgalikda yashab keladi. Tinchlik, totuvlik, millatlararo bag‘rikenglik hamda turli dinlararo tolerantlik va do‘stlik munosabatlari har qanday jamiyat va mamlakatning rivoji uchun mustahkam asos hisoblanadi. Diniy bag‘rikenglik bu turli din vakillarining e‘tiqodidagi aqidaviy farqlardan qat‘iy nazar, bir yerda yonma-yon, tinch-totuv, o‘zaro hamkorlik hamda do‘stlik

munosabatlarida yashashlaridir. Shuningdek, diniy bag'rikenglik – xilma-xil e'tiqodda bo'lgan kishilarning oliyjanob g'oya va niyatlar yo'lida hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. Hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Albatta, diniy bag'rikenglik jarayoni o'z-o'zidan, tasodifan yuzaga kelmaydi, balki u demokratik jamiyat qurish yo'lidan borayotgan davlatning adolatli siyosati hosilasidir. Davlat nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda, balki turli millatlar va dinlar o'rtasida do'stona munosabatlarni, bag'rikenglikni ta'minlashda ham yetakchi va asosiy bo'lishi zarur bo'ladi. Shunday ekan, diniy bag'rikenglik zamonaviylikning asosi va jamiyatlarning rivojlanishiga imkon beradi. Bu jamiyatning har bir a'zosiga teng huquqlar asosida davlati rivojiga hissa qo'shish imkonini beradi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan qurishning muhim shartidir. Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston qadim asrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi va bir-biriga o'xshash bo'lmagan turli xalqlar, millatlar yashagan va yashab kelayotgan o'lkadir. Shubha yo'qki, diniy bag'rikenglik munosabati xalqimizga xos alohida fazilat bo'lib qolgan. Bugungi kunda O'zbekiston millatlararo va konfessiyalararo totuvlik amalda ta'minlangan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida barqaror rivojlanib kelmoqda. Mamlakatda 16 ta konfessiyaga mansub bo'lgan 2 300 dan ortiq diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda, 130 dan ziyod millatlar va elatlar vakillari istiqomat qilmoqda. Davlat tomonidan 7 tilda ta'lim olish imkoniyati yaratilganligi, 12 tilda teleradiodasturlar efirga uzatilayotganligi, 14 tilda gazeta va jurnallar chop etilayotganligi, 155 ta milliy madaniy markaz erkin faoliyat yuritayotganligi millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik va hamjihatlik muhitining amaldagi namunasi hisoblanadi. Ma'lumki, dunyodagi dinlar asl mohiyatiga ko'ra ezgulik g'oyasiga asoslanadi, kishilarni halollik, poklik, mehr-shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi. Inson hayotining asl maqsadi inson va tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lish, hamisha yaxshi, savobli ishlarni amalga oshirishdan iborat. Shunday ekan, haqiqiy diniy qarashlar ortida diniy bag'rikenglik yotadi. UNESCO diniy bag'rikenglik muammosiga alohida e'tibor berib, 1995-yilni BMT ning "Bag'rikenglik yili" deb e'lon qildi". O'sha yili 16-noyabrda 185 ta davlat ishtirokida Parijda "Bag'rikenglik Tamoyillari Deklaratsiyasi" qabul qilindi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ham bu sohada ulkan ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda respublikamizda 2000 dan ziyod diniy tashkilot, shu jumladan, O'zbekiston Musulmonlar idorasi, Qoraqalpog'iston Musulmonlari qoziyati, O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi, 10 ta madrasa va 2131 ta masjid, Rus pravoslav cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Yeparxiyasi, Pravoslav seminariyasi, Rim-katolik cherkovi, Yevangel xristian baptistlar cherkovlari ittifoqi, to'liq Injil xristianlar markazi, Xristian seminariyasi, O'zbekiston Bibliya jamiyati, Krishnani anglash jamiyati davlat ro'yxatidan o'tgan. Bu, o'z navbatida, O'zbekistondagi millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, konfessiyalararo totuvlik va

hamjihatlikning o'ziga xos namunasi, barcha dinlarga nisbatan bag'rikenglikning ijobiy namunasi. Binobarin, ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan xalqimizga xos etnik, madaniy va diniy bag'rikenglik ildizlari boshqa din vakillari tomonidan ham e'tirof etilganidek, uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ta'kidlash joizki, dunyoda mavjud dinlar o'z mohiyatida ezgulik, tinchlik, mehr-oqibat, do'stlik, bunyodkorlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan. Xususan, din odamlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, hamjihatlik va bag'rikenglikka chorlaydi. Islom va nasroniylik dinlari insonparvarlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan axloqiy me'yorlarni targ'ib qiladi: rahm-shafqat, rahm-shafqat, halollik, qalb pokligi, mardlik va tantanavorlik. Jahon dinlaridan biri bo'lmish xristianlik o'z dindorlarini diniy-axloqiy g'oyalar asosida mehr-oqibat ko'rsatishga, haqiqatni aytishga, mazlum va mehnatkash xalqqa yordam berishga, mehnat qilishga, ahil-inoq yashashga da'vat etadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda hukm surayotgan millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, do'stlik va hamjihatlik muhiti, o'z navbatida, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash orqali O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugun O'zbekistonda tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Respublikada tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik va farovonlik muhiti hukm surishidan barcha din vakillari birdek manfaatdor. O'z navbatida, davlat turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar va fuqaroligi bo'lmaganlar, turli dinlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro yarashuv va hurmatni mustahkamlashga ko'maklashadi, diniy va boshqa aqidaparastlik va ekstremizmga qarshi kurashish va munosabatlarni keskinlashtirishga, turli millat vakillari o'rtasida adovatning kuchayishiga yo'l qo'ymaydi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ushbu masala yuzasidan fikr yuritarkan, "...hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida millatlar va dinlar o'rtasidagi ziddiyat kuchaymoqda, millatchilik, diniy murosasizlik kuchaymoqda. Bu illatlar davlatga singib ketgan, jamiyatni barbod qilmoqda. va radikal guruh va oqimlarning g'oyaviy asosiga aylanib bormoqda. Mana shunday og'ir sharoitda mamlakatimizda turli millat va din vakillari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlash biz uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu, shubhasiz, ishonchli vakil bo'lib xizmat qilmoqda. yurtimizdagi tinchlik-osoyishtalik garovi, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati, ertangi kunga ishonchi yuksalishiga zamin yaratdi". Xususan, O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik munosabatlarini, birinchi navbatda, dinlararo nizolarning oldini olish orqali ta'minlash turli din vakillari o'rtasida o'zaro hamkorlik, hamjihatlik va o'zaro tushunishni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Bu omil bevosita yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat yuksalishiga xizmat qiladi.

Aholisi ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda islomdan tashqari xristianlik, yahudiylik, buddaviylik va boshqa konfessiyalarga e'tiqod qiluvchi kishilar ham bor. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakatda millatlararo hamjihatlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan izchil davlat siyosati turli millat hamda barcha diniy konfessiya vakillarining

emin-erkin yashashlari uchun mustahkam asos yaratdi. 1992-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Qo'mita tarkibida diniy konfessiyalar bilan ishlash uchun maxsus tashkil etilgan sho'ba ish boshlaganidan so'ng, respublika hududida joylashgan va diniy faoliyat yuritayotgan barcha tashkilotlar haqida ma'lumotlar to'plana boshlandi. O'zbekiston kabi ko'p konfessiyali davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik mamlakatda rivojlanayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Ayni paytda O'zbekistonda 16 diniy konfessiyaga mansub 2313 ta diniy tashkilot faoliyat yuritadi. Shundan 2122 tasi islomiy, 174 ta xristian diniy tashkiloti, 8 ta yahudiy, 6 ta bahoiy jamoalari, 1 ta krishnani anglash jamiyati, 1 ta buddaviylar ibodatxonasi va 1 ta O'zbekiston Bibliya jamiyatidir. Shuningdek, qisqa muddat ichida 54 ta masjid yangidan barpo etildi, 17 ta yangi noislomiy diniy tashkilot o'z faoliyatini boshladi. Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiyalar ishlari kengashining tarkibi O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga 9 tadan 17 ta a'zoga kengaydi. Ushbu kengashning yig'ilishlari muntazamlik kasb etib, yiliga ikki marta o'tkazilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita dindorlar ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashib kelmoqda. Xususan, respublikamizda turli dinlarga e'tiqod qiluvchi insonlarning barcha ibodat va marosimlarini emin-erkin bajarib, diniy bayramlarini keng miqyosda nishonlashi uchun ham har tomonlama shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, musulmonlarning ikki Hayit bayrami, nasroniylarning Pasxa va Rojdestvo, yahudiylarning Peysax, Purim va Xanuka bayramlari keng nishonlanmoqda. Ushbu sanalarda konfessiya yetakchilarining bir-birlarini o'zaro bayram bilan tabriklashi yaxshi an'anaga aylangan. Ma'lumki, yurtimizda har yili 16-noyabr - Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan turli diniy konfessiya vakillari, xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar mas'ullari ishtirokida xalqaro konferensiya o'tkaziladi. Mazkur sana munosabati bilan turli konferensiya va anjumanlar, davra suhbatlari va uchrashuvlarni tashkil etilgani, shubhasiz, jamiyatda bag'rikenglik g'oyalarining mustahkamlanishi, turli millat va elat hamda diniy konfessiya vakillari o'rtasida o'zaro do'stlik va hamjihatlik munosabatlarining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistondagi diniy erkinlik, dinlararo barqarorlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash borasida jiddiy qadamlar tashlangani, bu boradagi ijobiy o'zgarishlar xalqaro hamjamiyat e'tiboriga tushdi. 2007-yilda Islom Hamkorligi Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalar bo'yicha tuzilmasi AYSESKO tomonidan "Toshkent Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilindi. Bu O'zbekiston davlatining dinga bo'lgan munosabati natijasidir.

O'zbekistonda qaror topgan diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo munosabatlar quyidagi omillar bilan belgilanadi:

*Birinchi*dan, respublikada istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari hamda turli diniy konfessiyalar faoliyatida o'zaro hurmat, sabr-toqat, bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirishda amaliy ishlar olib borilmoqda.

*Ikkinchi*dan, milliy va diniy bag'rikenglik o'zbek madaniyati hamda. mentalitetining ajralmas qismidir. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik borasida olib borilayotgan siyosat demokratik o'zgarishlarni va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirishga, boshqa millatlar, dinlar va madaniyatlarga hurmatsizlik hollaridan, ekstremizm shakllaridan xoli haqiqiy demokratik jamiyatni qurish omiliga aylanishiga, jamiyatda millatlararo va dinlararo ahillikning saqlanishiga imkon tug'dirmoqda.

*Uchinchi*dan, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlardagi uyg'unlik xalqlarning ma'naviy boyligi manbai hisoblanadi va davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli madaniyat va din vakillari o'rtasidagi muloqotlar kelishuv va o'zaro ishonchga erishish yo'llaridan biri sanaladi.

*To'rtinchi*dan, mutaxassislar fikricha, bir-biridan farq qiladigan 2 xil bag'rikenglik tushunchasi mavjud: formal tashqi ko'rinishdagi bag'rikenglik va ichki pozitiv bag'rikenglik. Formal ravishdagisi, boshqa kishining diniy e'tiqodiga nisbatan toqatlilikni, unga qarshi kurashmaslikni anglatadi, ichki, ya'ni ijobiy esa boshqa dinlarni yaxshi bilishni ham taqozo etadi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda har ikkala ko'rinishdagi bag'rikenglik amalda o'zining to'liq ifodasini topgan.

Ilmiy manbalar o'lkamizda qadim zamonlardan oq zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, nasroniylik kabi murakkab ideologik tizimga ega dinlar tinch-totuv faoliyat olib borganliklaridan dalolat beradi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konfessiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Umuman, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan noislomiy konfessiyalar turli e'tiqodda bo'lgan fuqarolar o'rtasida totuvlik va do'stlik rishtalarini mustahkamlashda muayyan mavqega ega. Ayni paytda O'zbekistonda islom dini bilan bir qatorda, pravoslavlar, baptistlar, yahudiylik, adventistlar, katoliklar, lyuteranlar, krishnaitlar, buddistlar, pyatide-syatniklar, legova shohidlari, yangi havvoriylar, xristian-presviterianlar singari bir qancha din va mazhablar mavjud. Ulardan har birining o'ziga xos mafkurasi, talab va ehtiyojlari mavjud. Markaziy Osiyodagi musulmon va boshqa konfessiyalarga mansublar o'rtasidagi munosabatlar ham siyosiy, ham maishiy darajada ikki asosiy xususiyatga asoslangan bo'lib, bular o'zaro hurmat va bag'rikenglikdir. Bu munosabat har xil dinlar vakillarining murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardonavor yengib o'tishlari natijasida shakllangan. Mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik bo'lishidan barcha din vakillari manfaatdor bo'lib, ba'zi konfessiyalar vakillari O'zbekistonda va xorijda tashkil etilayotgan ma'naviy va ma'rifiy tadbirlardagi ma'ruzalarida respublikada diniy bag'rikenglik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlashlarini bildirmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasida diniy siyosat nafaqat fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlashga qaratilgan, balki jamiyatdagi barqarorlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Davlatning diniy tashkilotlar faoliyatini qonuniy doirada tartibga solishi, ularni milliy qadriyatlar va ma’naviy meros bilan uyg‘unlashtirishi, shuningdek, diniy ekstremizm va radikallashuvning oldini olishga yo‘naltirilgan ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu yo‘l bilan yoshlarni diniy radikallashuv va terrorizmning salbiy ta’siridan himoya qilish, jamiyatda tinchlik va totuvlikni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Turli diniy va etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro hurmat va murosani rivojlantirish, konfessiyalararo va millatlararo bag‘rikenglikni saqlash ham ekstremizmning oldini olishdagi samarali mexanizmlardan biridir. Bu yondashuv diniy nizolar va ijtimoiy ziddiyatlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaydi, aksincha, jamiyatda ijtimoiy birdamlik va o‘zaro ishonch muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar faoliyatini milliy tarix, urf-odat va ma’naviy meros bilan uyg‘unlashtirish orqali, jamiyatda axloqiy va ma’naviy barqarorlikni mustahkamlashga ham hissa qo‘shiladi. Shu tarzda olib borilayotgan siyosat, ekstremizm va radikallashuv xavfini kamaytirish bilan birga, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va jamiyatdagi tinchlikni ta’minlashni ham kafolatlaydi. O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik va milliy totuvlik bo‘yicha amalga oshirayotgan izchil yondashuvi, shuningdek, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi qat’iy choralari mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, diniy siyosat bilan bog‘liq barcha choralar jamiyatda tinchlik, farovonlik va barqarorlikni mustahkamlashga yo‘naltirilgan bo‘lib, turli diniy va etnik guruhlar o‘rtasidagi ijtimoiy hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahriri, 2023-yil.
- 2.O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati KONSEPSIYASI, 25.02.2025.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining rasmiy veb-sayti.
- 5.O‘zbekiston tarixi, N.Jo‘rayev, A.Zamonov, 2018-yil.
6. Konfessiyalararo totuvlik – tinchlik va barqarorlik omili, S.Toshboyev, 2021-yil.
7. Yusupov A. O‘zbekistonda yoshlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda madaniy va mafkuraviy omillarni o‘rganishning nazariy asoslari.